

hamda ayrim hududlarda infratuzilmaning yetarlicha rivojlanmaganligi kabi muammolar mavjud.

Ta'kidlab o'tilgan muammolarni bartaraf etish maqsadida turizm sohasida investitsion muhitni yanada yaxshilash, turizmga doir yangi loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha maxsus dasturlarni kengaytirish hamda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi sherikchilikni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan bir qatorda turizm sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik va o'rta biznes subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish zarur.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:***

1. *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi.* – Toshkent, 2025.
2. *Vukonić B. Religion and Tourism: Economic Aspects.* – Oxford: Elsevier Science Ltd., 1996.
3. *Kozák T. The Regional Multiplier Effect of Pilgrim Tourism.*
4. *World Travel & Tourism Council (WTTC). Economic Impact Report 2025.*  
<https://wttc.org/research/economic-impact>
5. *UN Tourism (UNWTO). World Tourism Barometer, 2025.*  
<https://www.unwto.org/tourism-data>.
6. *OECD. Effective Policy Approaches for Quality Investment in Tourism.* – Paris: OECD Publishing, 2018.  
[https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2018/11/effective-policy-approaches-for-quality-investment-in-tourism\\_4c4199b5/88ea780c-en.pdf](https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2018/11/effective-policy-approaches-for-quality-investment-in-tourism_4c4199b5/88ea780c-en.pdf).

## **YASHIL BARQAROR IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI**

***Sodikov Zokir Rustamovich,***

*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi dotsenti, i.f.n.*

Mamlakatimizda “yashil” iqtisodiyotga o'tish ekologik barqarorlik, resurslardan samarali foydalanish va uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadi sifatida belgilangan. Shu bois O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son qarori bilan 2019–2030-yillarda O'zbekiston Respublikasining “Yashil” iqtisodiyotga o'tish strategiyasi<sup>314</sup> tasdiqlangan. Ushbu hujjat yashil iqtisodiyot va sirkulyar ishlab chiqarishning huquqiy asosini belgilovchi asosiy rasmiy hujjat hisoblanadi. Strategiya qabul qilinishining asosiy maqsadi — tabiiy resurslarning samarasiz sarflanishi, suv tanqisligi va yer

---

<sup>314</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 — 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining “Yashil” iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida qarori, 2019-yil 4-oktabr, PQ-4477-son

degradatsiyasi, havoning ifloslanishi, energiya resurslariga yuqori bog'liqlik, iqlim o'zgarishining salbiy ta'siri hamda iqtisodiyotning energiya va resurs talabchanligi kabi dolzarb muammolarni bartaraf etishga qaratilgan. Bugungi kunda global hamjamiyat oldida turgan eng muhim vazifa — barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash bilan birga ekologik xavfsizlikni mustahkamlashdir. Strategiyaning ustuvor vazifalari energiya samaradorligini oshirish, energiya tejavchi texnologiyalarni ommaviy joriy etish va sanoatda energiya samarador standartlarni kuchaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, quyosh va shamol energetikasini kengaytirish, 2030-yilgacha elektr energiyasi ishlab chiqarishda yashil energiya ulushini keskin oshirish, suv resurslaridan samarali foydalanish uchun tomchilatib sug'orish, suv tejavchi qishloq xo'jaligi usullarini joriy etish va suv yo'qotishlarini kamaytirish, tuproq degradatsiyasini kamaytirish, organik va barqaror dehqonchilikni rivojlantirish, kimyoviy o'g'itlardan oqilona foydalanish, atmosfera ifloslanishini kamaytirish uchun transport va sanoatda ekologik standartlarni joriy etish, jamoat transportini rivojlantirish, chiqindilarni saralash, qayta ishlash va chiqindidan energiya olish texnologiyalarini qo'llash, chiqindi poligonlarini optimallashtirish, iqlim o'zgarishiga moslashuvchan tizim yaratish, qurg'oqchilik va tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish, ekologik monitoringni kuchaytirishdan iborat. Bunda, 2030-yilgacha belgilangan asosiy maqsadli ko'rsatkichlar yalpi ichki mahsulotning energiya sig'imini kamaytirish, elektr energiyasi ishlab chiqarishda qayta tiklanuvchi manbalar ulushini keskin oshirish, suvdan foydalanish samaradorligini oshirish, issiqxona gazlari chiqarilishini cheklash, qayta ishlanadigan chiqindilar ulushini oshirish, degradatsiyaga uchragan yer maydonlarini qisqartirish ko'zda tutilgan. Strategiyaning amalga oshirish mexanizmlari institutsional islohotlar, ekologik boshqaruv tizimini takomillashtirish, davlat organlari o'rtasida muvofiqlashtirishni kuchaytirish, yashil texnologiyalar uchun soliq imtiyozlari va rag'batlar joriy etish, yashil investitsiyalarni jalb qilish, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va xalqaro hamkorlikni kengaytirishdan iborat.

Milliy iqtisodiyot uchun strategiyaning ahamiyati shundaki, u ekologik barqaror rivojlanishni ta'minlaydi, energiya va suv xavfsizligini kuchaytiradi, iqlim o'zgarishi ta'sirini kamaytiradi, iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshiradi, aholining sog'lig'i va yashash sifatini yaxshilaydi hamda "yashil" investitsiyalar jalb etadi va yangi ish o'rinlarini yaratadi. Strategiya milliy iqtisodiyotni resurslarga qaram, energiya talabchan modeldan ekologik barqaror va innovatsion modelga o'tkazishning asosiy huquqiy manbai hisoblanadi. Barqaror rivojlanishning uch ustuni — iqtisodiy samaradorlik, ekologik muvozanat va ijtimoiy farovonlik — strategiyada uzviy birlashgan. Iqtisodiy jihatdan energiya xarajatlarini kamaytiradi va yangi tarmoqlarni rivojlantiradi; ekologik jihatdan

issiqxona gazlari va ifloslanishni kamaytiradi, bioxilma-xillikni saqlaydi; ijtimoiy jihatdan esa aholining sog'lig'ini yaxshilaydi va "yashil ish o'rinlari" yaratadi. Shuningdek, xalqaro hamkorlik bo'yicha xalqaro moliya institutlari tomonidan yashil loyihalar qo'llab-quvvatlanmoqda, iqlim o'zgarishiga moslashuvchan dasturlarda ishtirok etilmoqda. Bular strategiyani amalga oshirish uchun muhim institutsional asos yaratadi. Iqtisodiy imkoniyatlar sifatida yashil investitsiyalar oqimini jalb qilish, energiya import xarajatlarini kamaytirish, ekologik toza mahsulotlar eksportini kengaytirish, yangi "yashil ish o'rinlari" yaratish kerak.

Yashil iqtisodiyot iqtisodiy o'sishni yangi manbalar orqali ta'minlab beradi. Iqlim o'zgarishiga moslashuvchan imkoniyatlar sifatida qurg'oqchilikka chidamli ekin turlarini joriy etish, suvni tejash texnologiyalarini kengaytirish, ekologik monitoring tizimini rivojlantirish kerak. Bu ekologik xavflarni kamaytiradi. Shuning uchun mamlakatda yashil iqtisodiyotga o'tish uchun zarur shart-sharoitlar mavjud bo'lib, ular, tabiiy omillar sifatida quyosh, shamol va biomassa salohiyatidan, texnologik omillar sifatida energiya va suv tejoychi texnologiyalardan, institutsional omillar sifatida davlat siyosati va xalqaro hamkorlikdan, iqtisodiy omillar sifatida investitsiyalar va yangi bozor imkoniyatlaridan tashkil topgan. Shu imkoniyatlardan samarali foydalanish tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muvozanatni tiklash va uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Tabiiy salohiyat jihatidan mamlakat yiliga 300 kundan ortiq quyoshli kunlarga ega bo'lib, bu quyosh va shamol energetikasi uchun qulay sharoit yaratadi. Qishloq xo'jaligi biomassa resurslari (paxta poyasi, g'alla qoldiqlari, chorva chiqindilari) biogaz ishlab chiqarishga imkon beradi. Suningdek suv resurslarini tejashda tomchilatib sug'orish, raqamli monitoring va qayta foydalaniladigan suv tizimlarini joriy etish muhim hisoblanadi. Yer resurslari bo'yicha degradatsiyaga uchragan maydonlarni rekultivatsiya qilish va organik qishloq xo'jaligini rivojlantirish eksport salohiyatini oshiradi. Energiya samaradorligi, havo ifloslanishini kamaytirish, institutsional rivojlanish (ekologik qonunchilik, davlat-xususiy sheriklik), yashil investitsiyalar va iqlimga moslashuvchan dasturlar ham strategiyani muvaffaqiyatli amalga oshirishga xizmat qiladi. Natijada, mazkur Strategiya tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muvozanatni tiklash va mamlakatning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlashning mustahkam asosini yaratadi. O'zbekiston Respublikasining 2019–2030-yillarda "Yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi (PQ-4477), uni rivojlantiruvchi 2022-yildagi PQ-436 qarori hamda "O'zbekiston–2030" strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar 2025-yilda sezilarli natijalar berdi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari (QTEM) rivojlanishi hisobiga 2019–2024-yillarda QTEM quvvati 570 % ga oshdi. 2025-yil boshiga kelib quyosh va shamol energiyasi

bo'yicha taxminan 5 000 MVt (+gidro 400 MVt) ishga tushirildi, yashil energiya umumiy generatsiya quvvatidagi ulushi 30 % ga yetdi. 2024-yilda QTEM elektr energiyasi ishlab chiqarishdagi ulushi ~16 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yil iyul–sentabr oylarida bir oyda 27 % gacha ko'tarildi. Hozirda 17 ta yirik quyosh va shamol stansiyasi xorijiy investitsiyalar hisobiga qurilmoqda. 2030-yil maqsadi: 25 GVt quvvatga chiqarish.

Energiya samaradorligi bo'yicha 2018–2023-yillarda YaIM energiya sig'imi 37 % ga kamaydi. iCRAFT<sup>315</sup> loyihasi doirasida energiya tejavchi texnologiyalar joriy etilib, sanoat va binolarda modernizatsiya davom etmoqda. Yashil energiya sertifikatlari va moliyalashtirish uchun 2025-yilda jami 446 520 ta I-REC(E) sertifikati emissiya qilingan. Eng katta hajm — “Navoiyuran” uchun 250 ming dona bo'lgan. 2025-yil 9 oylik yakuni bo'yicha jalb qilingan mablag'lar Jahon banki — 7,5 mln. \$ grant, YTTB — 200 mln dollar, OTB va boshqa donorlardan jalb etilgan. Shuningdek, suvni tejash uchun tomchilatib sug'orish va raqamli monitoring tizimi kengaytirilmoqda. Chiqindilar 9 ta klaster 1 mln tonna chiqindini qayta ishlamoqda. Yer degradatsiyasi va o'rmonlashtirish uchun “Yashil Makon” dasturi doirasida Orolbo'yi hududida 1,7 ming gektar o'rmon barpo etilib, 2 mln. gektar cho'l hududi o'simliklar bilan qoplandi; yashil qoplama ulushi oshirilmoqda. Strategiyani amalga oshirish natijasida mamlakat energiya xavfsizligi mustahkamlandi, gaz importiga qaramlik sezilarli darajada kamaydi, “yashil” ish o'rinlari yaratildi va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik kengaydi. 2025-yilda MRV tizimi, yashil sertifikatlar bozori va uglerod savdosi to'liq ishga tushirildi. Bu ko'rsatkichlar energiya samaradorligini oshirish, issiqxona gazlarini kamaytirish va resurslardan oqilona foydalanish borasida asosiy maqsadlariga erishilayotganini ko'rsatadi.

## **O'ZBEKISTONDA MEHNAT MIGRANTLARI PUL O'TKAZMALARINING JORIY DINAMIKASI VA MOLIYA BOZORI BARQARORLIGIGA TA'SIRI**

***Ismoilov Azizbek Jo'rabek o'g'li***

*Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti,*

*“Tashqi iqtisodiy faoliyat” yo'nalishi 2-bosqich magistri*

***Annotatsiya.*** Mazkur tezisda O'zbekistonda mehnat migrantlari pul o'tkazmalarining joriy dinamikasi hamda ularning moliya bozori barqarorligiga ta'siri kompleks statistik tahlil asosida o'rganilgan. Tadqiqotda pul o'tkazmalarining umumiy o'zgarish tendensiyalari, hududlar kesimidagi ulushi, viloyatlarning remitenslarga bog'liqlik darajasi hamda asosiy donor davlatlar

---

<sup>315</sup>iCRAFT — bu Jahon banki tomonidan Markaziy Osiyo davlatlari uchun amalga oshirilayotgan mintaqaviy tashabbus bo'lib, u “Innovative Climate Resilient Agriculture and Food Trade – iCRAFT”, iqlimga chidamli qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlar savdosini innovatsion rivojlantirish loyihasi hisoblanadi.